



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

2019-yil yanvar-fevral

RAQAMLAR:

- 2019-yilning yanvar-fevral oylarida bozor xizmatlari hajmi 351,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.
- Moliya xizmatlarining o'sish sur'ati 213,6 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 427,3 ming. so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi viloyat iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushining oshishiga olib keldi.

2019-yilning yanvar-fevral oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 351,6 mlrd. so'mni tashkil qildi.


Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (30,9 %) tashkil etadi.

2019-yilning yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, %




Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'nggi vaqtlarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozirgi kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashtirishida hal qiluvchi ro'l o'ynaydi.

2019-yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2019-yil yanvar-fevral oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (213,6 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (126,3 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (121,3 %), kompyuterlarni tamirlash xizmatlari (105,8 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

2019-yilning yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining ulushi, %



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo xizmatlari (30,9 %), moliyaviy xizmatlar (22,3 %), transport xizmatlari (16,9 %) hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,3 %) ni tashkil etadi.

**2019-yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha bozor xizmatlari**

	Hajmi mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % hisobida	Umumiy hajmga nisbatan % hisobida
Jami xizmatlar	351,6	118,8	100,0
shu jumladan: xizmat turlari do'yicha			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	22,3	91,8	6,3
moliyaviy xizmatlar	78,5	213,6	22,3
transport xizmatlari	59,4	101,0	16,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>57,0</i>	<i>100,8</i>	<i>16,2</i>
yashash va ovqatlanish xizmatlari	8,7	107,3	2,5
savdo xizmatlari	108,5	107,3	30,9
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	10,2	100,6	2,9
ta'lim sohasidagi xizmatlar	16,4	126,3	4,7
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	5,3	121,3	1,5
ijara xizmatlari	7,1	83,2	2,0
kompyuterlar va maishiy tovarlarni, ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	9,9	105,8	2,8
shaxsiy xizmatlar	9,0	103,4	2,6
me'morchilik muxandislik izlanishlar, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	3,8	102,5	1,1
boshqa xizmatlar	12,5	112,3	3,5

**2019-yilning yanvar-fevral oylarida tuman va shaharlar bo'yicha
bozor xizmatlari hajmi**

	Hajmi mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % hisobida	Umumiy hajmga nisbatan % hisobida
--	---------------------	-------------------------------	--------------------------------------

Sirdaryo viloyati	351,6	118,8	100,0
--------------------------	--------------	--------------	--------------

shaharlar:

Guliston	186,2	129,5	53,0
----------	-------	-------	------

Shirin	4,4	110,8	1,3
--------	-----	-------	-----

Yangiyer	24,3	107,6	6,9
----------	------	-------	-----

tumanlar:

Oqoltin	8,8	109,2	2,5
---------	-----	-------	-----

Boyovut	14,5	112,7	4,1
---------	------	-------	-----

Sayxunobod	17,8	115,8	5,0
------------	------	-------	-----

Guliston	12,7	108,3	3,6
----------	------	-------	-----

Sardoba	10,9	100,5	3,1
---------	------	-------	-----

Mirzaobod	15,8	108,9	4,5
-----------	------	-------	-----


Sirdaryo	42,7	107,3	12,2
----------	------	-------	------

Xovos	13,5	107,8	3,8
-------	------	-------	-----

Hududlar o'rtasida Guliston shahri (186,2 mlrd. so'm) yetakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Guliston shahri bo'yicha 129,5 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari (108,5 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (78,5 mlrd. so'm), transport xizmatlari (59,4 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (22,3 mlrd. so'm) ga oshganligi kuzatildi.

2019-yilning yanvar-fevral oylarida alohida xizmat turlari




Xizmatlar hajmining nisbatan sezilarli bo'lmagan holda oshishi me'morchilik sohasidagi xizmatlar bo'yicha kuzatildi. Ushbu xizmat turining hajmi 2018-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 0,6 mlrd. so'mga oshdi.

Bugungi kunda savdo-sotiq iste'mol bozoriga bo'lgan talab jarayoni faol ishtirokchiga aylandi. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida sezilarli qismini tashkil qiladi.

2019-yilning yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlari hajmi 108,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 30,9 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 70,5 % ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 24,0 % ni tashkil etdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holdagi ulushi 5,5 % ni tashkil qiladi.